



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

DIZARTRIYALI BOLALARDA NUTQNING TO‘LIQ RIVOJLANMAGANLIGINI BARTARAF ETISH JARAYONINING DIDAKTIK TA‘MINOTI

Raxmatova Dilnavoz A‘zam qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Dizartriya bolalarda noaniq, tushunarsiz talaffuz, nutq tezligi va ritmining pasayishi, cheklangan faol so‘z boyligi va nutqning sust ohang-ifodaviy jihatdan rangsizligi, nutqning tovush va fonetik unsurlarini idrok etish hamda qayta hosil qilishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu o‘ziga xos buzilishlar diqqat jamlash, og‘zaki xotira hajmi, ta‘lim samaradorligining pasayishi, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan ijtimoiy moslashish va muloqot o‘rnatishdagi qiyinchiliklar, past o‘zini baholash, ortiqcha tashvishlanish va hissiy beqarorlikning shakllanishi, uzoq vaqt tuzatilmasa, ikkilamchi xulq-atvor buzilishlarining rivojlanishi kabi pedagogik muammolarga olib keladi. Bu esa ularga individual yondashuv va keng qamrovli pedagogik yordam ko‘rsatishni talab qiladi hamda o‘quv jarayonini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Kalit so‘zlar: dizartriya, nutq, nuqson, muammo, individual, psixika, didaktik, o‘yin, idrok, metod, texnologiya, logoped, pedagog, korreksion, tovush, xotira, diqqat.

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ПРЕОДОЛЕНИЯ ОБЩЕГО НЕДОРАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ

Рахматова Дилнавоз Аъзам кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, преподаватель

Аннотация

У детей с дизартрией наблюдаются нечеткое, непонятное произношение, снижение скорости и ритма речи, ограниченный активный словарный запас и слабая интонационно-выразительная бесцветность речи, трудности в восприятии и воспроизведении звуковых и фонетических элементов речи. Эти специфические нарушения приводят к таким педагогическим проблемам, как концентрация внимания, объем вербальной памяти, снижение эффективности обучения, трудности в социальной адаптации и общении со сверстниками и учителями, низкая самооценка, чрезмерная тревожность и формирование эмоциональной нестабильности, развитие вторичных поведенческих расстройств, если они не корригируются в течение длительного времени. Это требует индивидуального подхода и всесторонней педагогической помощи, а также необходимости изменения учебного процесса.

Ключевые слова: дизартрия, речь, дефект, проблема, индивидуальный, психика, дидактический, игра, восприятие, метод, технология, логопед, педагог, коррекционный, звук.

DIDACTIC SUPPORT FOR OVERCOMING UNDERDEVELOPED SPEECH IN CHILDREN WITH DYSARTHRIA

Raxmatova Dilnavoz A‘zam qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Lecturer

Abstract

Children with dysarthria exhibit unclear pronunciation, a decrease in speech speed and rhythm, a limited active vocabulary and a weak tone-expressive colorlessness of speech, and difficulties in perceiving and reproducing sound and phonetic elements of speech. These specific disorders lead to pedagogical problems such as concentration, verbal memory volume, decreased learning efficiency, difficulties in social adaptation and communication with peers and teachers, low self-esteem, the formation of excessive anxiety and emotional instability, and the development of secondary behavioral disorders if not corrected for a long time. This requires an individual approach and comprehensive pedagogical support, and creates the need to change the educational process.

Keywords: dysarthria, speech, defect, problem, individual, psyche, didactic, game, perception, method, technology, speech therapist, educator, correctional, sound.

Nutq insonning ijtimoiylashuvi, bilish faoliyati va shaxs sifatida shakllanishida muhim vosita

hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik davrida nutqning to'laqonli rivojlanishi bolaning intellektual salohiyati, muloqot madaniyati hamda ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Nutq buzilishlari esa ushbu jarayonning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bolaning ruhiy, emotsional va ijtimoiy holatida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunday nutq buzilishlaridan biri dizartriya bo'lib, u markaziy va periferik nerv tizimi faoliyatidagi buzilishlar natijasida yuzaga keladigan murakkab nutq nuqsonidir. Dizartriya artikulyatsion apparat faoliyatining yetarli darajada boshqarilmasligi natijasida tovush talaffuzi, nutq sur'ati, ritmi, ovoz kuchi va intonatsion ifodalilik buziladi.

So'nggi yillarda dizartriya bolalar sonining ortib borayotgani, ularda nutqning to'liq rivojlanmaganligi bilan bog'liq qo'shimcha muammolar kuzatilayotgani ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bunday bolalarda nafaqat fonetik-fonematik jarayonlar, balki lug'at boyligi, grammatik qurilish, bog'lanishli nutq hamda bilish jarayonlari rivojlanishida ham sezilarli kamchiliklar kuzatiladi. Natijada ular tengdoshlari bilan muloqot qilishda, o'quv materiallarini o'zlashtirishda hamda ijtimoiy muhitga moslashishda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa korreksion-pedagogik ishlarni ilmiy asosda tashkil etish va samarali didaktik ta'minotni yaratishni talab etadi.

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish jarayoni faqat logopedik mashqlar bilan cheklanib qolmay, balki maxsus tashkil etilgan ta'lim muhiti, moslashtirilgan o'quv materiallari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, didaktik vositalar hamda individual yondashuvni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan didaktik ta'minot korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bolalarning nutqiy, bilish va kommunikativ faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Didaktik ta'minotning samarali tashkil etilishi dizartriya bolalarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, talaffuz nuqsonlarini bartaraf etish, fonematik idrokni rivojlantirish hamda o'quv motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish masalasi logopediya, maxsus pedagogika, psixologiya va nevrologiya fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan murakkab ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda dizartriyaning kelib chiqish sabablari, klinik ko'rinishlari, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning mazmuni hamda didaktik ta'minotning ahamiyati turli jihatlardan yoritilgan.

M.Y. Ayupova o'zining "Logopediya" asarida nutq buzilishlari orasida dizartriyaning murakkab nuqson sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi hamda bu holatda artikulyatsion apparat faoliyatining yetarli shakllanmaganligi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Muallif dizartriya bolalarda tovush talaffuzi buzilishi bilan bir qatorda fonematik idrok, lug'at boyligi va grammatik qurilishning ham sust rivojlanishini qayd etadi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish va didaktik materiallardan foydalanish korreksion jarayon samaradorligini oshirishi alohida ta'kidlangan [1, 56-b.].

L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova va D.B. Yakubjanovalarning "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanmasida nutq buzilishlari bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari keng tahlil qilingan. Mualliflar dizartriya bolalarda diqqatning barqaror emasligi, eshituv xotirasining cheklanganligi va bilish faoliyatining sustligi kuzatilishini ko'rsatib, korreksion ishlarni tashkil etishda psixologik omillarni hisobga olish zarurligini asoslaydilar [2, 94-b.]. Ushbu manbada didaktik o'yinlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish bolalarning o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Sh.E. Toxtiyarova, Sh.D. Shakirova va N.Z. Abidovalar tomonidan yaratilgan "Nutqning ontogenezda rivojlanishi" nomli o'quv qo'llanmada bolalar nutqining ontogenetik rivojlanish bosqichlari yoritilgan bo'lib, nutqning me'yoriy shakllanish jarayonidan chetga chiqish holatlari ilmiy jihatdan izohlangan. Mualliflar dizartriya bolalarda artikulyatsion motorikaning yetarli rivojlanmaganligi tufayli fonetik-fonematik jarayonlar buzilishini hamda bu holat nutqning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar [3, 47-b.]. Shuningdek, korreksion mashg'ulotlarda artikulyatsion gimnastika va sensor rivojlantiruvchi topshiriqlarning muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

L.O. Badalyan "Nevropatologiya" darsligida dizartriya nevrologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning markaziy nerv tizimidagi organik zararlanishlar bilan bog'liqligini asoslab beradi. Muallif artikulyatsion apparat mushaklari innervatsiyasining buzilishi natijasida nutqning sur'ati, ritmi va talaffuzida jiddiy kamchiliklar yuzaga kelishini ko'rsatadi [4, 112-b.]. Ushbu tadqiqotlarda dizartriyaning klinik shakllari va ularni differensial diagnostika qilish masalalari ham batafsil yoritilgan bo'lib, bu logopedik ishlarni to'g'ri rejalashtirish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

R.I. Lalayeva, N.V. Serebryakova va S.V. Zorinalarning ilmiy ishlarida nutq buzilishlari bo'lgan bolalarda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish metodikasi tahlil qilingan. Mualliflar nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etishda kompleks yondashuv muhimligini asoslab, logopedik mashg'ulotlarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda olib borish zarurligini ta'kidlaydilar [5, 138-b.]. Ularning fikricha, korreksion jarayonda didaktik materiallarni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos tanlash ta'lim samaradorligini oshiradi.

A.A. Leontyev nutq faoliyatini psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilib, nutq inson tafakkuri va muloqot faoliyatining asosiy vositasi ekanligini qayd etadi. Muallifning fikricha, nutq faoliyatining buzilishi bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi [6, 32-b.]. Dizartriyali bolalarda kommunikativ faoliyatning sustligi ularning emotsional holati va ta'lim jarayonidagi faolligiga ham ta'sir etishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

V.I. Slobodchikov va E.I. Isayev inson psixologiyasiga oid tadqiqotlarida bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va pedagogik qo'llab-quvvatlashning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Mualliflar maxsus ehtiyojli bolalarda korreksion-rivojlantiruvchi muhit yaratish orqali ularning bilish faoliyatini faollashtirish mumkinligini qayd etadilar [7, 201-b.]. Ushbu yondashuv dizartriyali bolalar bilan ishlashda individual va differensial ta'limni tashkil etishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

T.B. Filicheva va G.V. Chirkinalar maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etish metodikasini ishlab chiqib, logopedik mashg'ulotlarda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qilish lozimligini ko'rsatadilar. Mualliflar artikulyatsion mashqlar, fonematik idrokni rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish va bog'lanishli nutqni shakllantirishni o'zaro integratsiyalashgan holda olib borish zarurligini asoslaydilar [8, 96-b.]. Ularning fikricha, didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarda nutqiy faollikni kuchaytiradi hamda korreksion ishlar samaradorligini oshiradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar dizartriyali bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishda kompleks pedagogik yondashuv, maxsus didaktik ta'minot, individual va tabaqalashtirilgan ta'lim, logopedik texnologiyalar hamda ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, korreksion-rivojlantiruvchi muhitni yaratish, motivatsion yondashuvni qo'llash va bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar nutqiy nuqsonlarni samarali bartaraf etishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Metodologiya

Mazkur maqolada dizartriyali bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish jarayonining didaktik ta'minotini o'rganishda kompleks pedagogik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida logopediya, maxsus pedagogika, psixologiya va nevrologiya sohalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi hamda dizartriyali bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari o'rganildi.

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, logopedik diagnostika, suhbat, didaktik o'yinlar asosida korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish hamda pedagogik monitoring usullaridan foydalanildi. Shuningdek, dizartriyali bolalarda artikulyatsion motorika, fonematik idrok, lug'at boyligi va bog'lanishli nutq holatini aniqlashga qaratilgan amaliy mashqlar qo'llanildi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar individual va kichik guruh shaklida tashkil etilib, ularda artikulyatsion gimnastika, logopedik ritmika, fonetik mashqlar, ko'rgazmali vositalar hamda interaktiv didaktik texnologiyalardan foydalanildi. Tadqiqot davomida bolalarning yosh, individual va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishga alohida e'tibor qaratildi. Natijalarni baholashda bolaning nutqiy faolligi, tovush talaffuzi, muloqotga kirishuvchanligi va bilish faoliyatidagi o'zgarishlar mezon sifatida olindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Dizartriyali bolalarda nutq — atrof-muhit bilan o'zaro munosabatning asosiy shakli — buzilgan bo'ladi. Shu sababli, ular boshqa odamlar bilan muloqot qilishda juda qiynaladilar. Hozirgi zamon sharoitida dizartriyali bolalar sonining ko'payishi, shuningdek, Respublikamizda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining sezilarli darajada yangilanishi munosabati bilan maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish buzilishlarining turli ko'rinishlarini aniqlash, tuzatish va oldini olish masalalarida ko'p tarmoqli yondashuvga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Bolardagi dizartriyaning o'ziga xos xususiyati ko'pincha turli klinik sindromlarning uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishidir. Nutqning harakat mexanizmlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan ayrim miya tuzilmalarining zararlanishi boshqa me'yoriy rivojlanish uchun muhim funksiyalarning

yetilishini kechiktirishi va ularning faoliyatida kamchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bu omil bolalarda dizartriya bilan birga nutqning to'liq rivojlanmaganligi kabi qo'shma tashxislarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, dizartriya kinestetik sezgilarning aniqligi buziladi va bola nutq apparati mushaklarining tarangligi yoki aksincha, bo'shashganligini, ixtiyorsiz majburiy harakatlarni yoki noto'g'ri artikulyatsion holatlarni his qila olmaydi. Dizartriyaning klinik belgilariga nutq muskulaturasidagi mushak tonusining buzilishi, artikulyatsiya apparati mushaklarining falajlanishi va parezlari sababli ixtiyoriy artikulyatsion harakatlarning cheklanishi, ovoz hosil qilish va ovozning buzilishi kabilar kiradi. Shunday qilib, dizartriya — bu miya shikastlanishi yoki ovoz paychalari, yuz va nafas olish mushaklari innervatsiyasining buzilishi oqibatida yuzaga keladigan nutq buzilishidir. Dizartriya klinik-pedagogik tasnif doirasida ajratiladi va nutqning fonatsion shakllanishi buzilishlari toifasiga kiradi, ko'pincha rivojlanishning boshqa buzilishlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Dizartriya bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish dizartriyaning turli shakllardagi nutq nuqsoni tuzilishini, umumiy va nutq motorikasining buzilish mexanizmlarini bilishga hamda bolalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishga asoslanadi. Dizartriya logopedik ta'sir ko'rsatish tizimi majmuaviy xususiyatga ega bo'lib, tovush talaffuzini tuzatish, tovush tahlili va sintezini shakllantirish, nutqning leksik-grammatik jihati va bog'lanishli nutqni rivojlantirish bilan uyg'unlashadi. Ishning o'ziga xos jihati farqli artikulyatsion massaj va gimnastika, logopedik ritmika, ayrim hollarda esa umumiy davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya va dori vositalari bilan davolash bilan birgalikda olib borilishidir.

Logopedik mashg'ulotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning erta boshlanishi va muntazam o'tkazilishiga bog'liq bo'lib, qo'llaniladigan nutqiy material, ish usullari va taklif etiladigan sur'at bolalarning individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Logopedik ish uslubi bolaning umumiy yoshi va bolada dizartriya paydo bo'lgan yoshga qarab sezilarli darajada o'zgaradi. Bola hayotida dizartriya qanchalik erta paydo bo'lsa, klinik ko'rinishida birlamchi harakat yetishmovchiligi belgilari nutq tizimining to'liq rivojlanmaganligi belgilari bilan birga namoyon bo'la boshlaydi. Shu sababli, logopedik ish nafaqat falajlangan nutq mushaklarini mashq qildirishga, balki artikulyatsiya ko'nikmalarini shakllantirish va avtomatlashtirishga, so'zlarning fonematik tahlilini o'rgatishga, lug'atni boyitishga hamda boshqa jihatlariga qaratiladi.

Dizartriya bolalarda nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlari — bu tizimli korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish uchun qulay muhit yaratilishini ta'minlovchi maqsadli tashkiliy va uslubiy chora-tadbirlar majmuidir. Bu chora-tadbirlar dizartriya bolalarda nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, grammatik tuzilmalarni takomillashtirish va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan. Qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi tashkiliy chora-tadbirlar — bu dizartriya bolalarda nutqni samarali tuzatish va rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim muhiti va jarayonini tashkil etishga qaratilgan tizimli va maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlardir. Ular pedagoglar va logopedlar ishini rejalashtirish, individual va guruhli ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, resurslar va qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlash, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishish uchun ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Maqsadga yo'naltirilgan uslubiy chora-tadbirlar — bu samarali o'qitish va nutqni tuzatish jarayonini tashkil etishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan pedagogik va logopedik usullar hamda texnologiyalardir. Bu chora-tadbirlar moslashtirilgan usullardan foydalanish, mos mashqlarni tanlash, ijobiy rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, har bir bolaga individual yondashish, shuningdek, nutqni rivojlantirishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun zamonaviy pedagogik va logopedik texnikalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Demak, dizartriya bolalarda nutq rivojlanishidagi yetishmovchilikni bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlari — ta'lim muhitida amalga oshiriladigan, nutq buzilishlarini tuzatish va bolalarning to'laqonli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda yondashuvlar majmuasidir. Zamonaviy ta'lim tizimida bu shart-sharoitlar logopedik usullar bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ko'proq korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni ta'lim jarayoniga singdirishga yo'naltirilgan.

Pedagogik imkoniyatlar — pedagogning ichki resurslari, salohiyati va qobiliyatlari, kasbiy kompetensiyalari, bilim va ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlarini bo'lib, ular pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar — pedagogik faoliyat amalga oshiriladigan tashqi omillar va vaziyatlardir. Bularga tashkiliy muhit, moddiy-texnik ta'minot, ta'lim sharoitlari, ijtimoiy muhit, shuningdek, pedagogik vazifalarni bajarish uchun qulay sharoit yaratadigan resurslar va qo'llab-quvvatlash kiradi.

Pedagogning pedagogik imkoniyatlari ma'lum pedagogik sharoitlarda ro'yobga chiqadi va

rivojlanadi. Qulay shart-sharoitlar bu imkoniyatlardan foydalanish va ularni rivojlantirish uchun maqbul muhit yaratib, kasbiy o'sish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Shuningdek, pedagogning rivojlangan pedagogik imkoniyatlari mavjud shart-sharoitlardan to'liq foydalanish va hatto ularni takomillashtirishga imkon beradi.

Pedagogik imkoniyatlar va shart-sharoitlar yagona jarayonning ikki jihati hisoblanadi. Bunda pedagogning ichki salohiyati tashqi shart-sharoitlar tufayli namoyon bo'ladi va rivojlanadi, qulay shart-sharoitlar esa o'z navbatida pedagogik imkoniyatlarni yanada takomillashtirish va qo'llashga undaydi.

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida moslashtirilgan ta'lim dasturini, korreksion va rivojlantiruvchi muhitni yaratish, o'qitish usullari va uslublarini to'g'ri tanlash, mutaxassislar hamkorligi hamda korreksion jarayonga ota-onalarni jalb etish, dizartriya bolalarda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish va bilish sohasini, motorikani rivojlantirish ustida ishlash, bola rivojlanishini muntazam baholash va kuzatib borishni e'tirof etish mumkin.

Dizartriya bolalarda nutq rivojlanishidagi yetishmovchilikni bartaraf etishning didaktik ta'minoti nutq buzilishlari bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va ijtimoiylashuvi uchun sharoitlar yaratishdan, shuningdek, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini va atrofdagilar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirishdan iborat.

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishning samarali pedagogik shart-sharoitlari sifatida korreksion va rivojlantiruvchi muhitni yaratish targ'ib etiladi. Unga ko'ra, nutqni rivojlantirish va bilish faoliyatini oshirishga yordam beradigan ko'rgazmali qurollar, didaktik o'yinlar hamda boshqa materiallardan foydalanish, har bir bolaga maksimal e'tibor qaratish uchun mashg'ulotlarni kichik guruhlarda yoki yakka tartibda tashkil etishga erishish lozim.

Dizartriya bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayonining samaradorligini ta'minlashning muhim omili sifatida ota-onalarni bolaning nutqiy xususiyatlari va korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning maqsadlari haqida xabardor qilish, ularga logopedik ish usullarini va uy sharoitida bolaning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash yo'llarini o'rgatish hamda oila a'zolarini nutq o'stirishga qaratilgan mashg'ulot va tadbirlarda ishtirok etishga jalb qilish zarur.

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishda bolaning yutuqlarini rag'batlantirish va uning o'zini namoyon etishi uchun sharoit yaratish, har bir bolaning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish, mashg'ulotlarga va umuman o'qishga ijobiy munosabatni, motivatsiyani shakllantirish muhim omil sanaladi. Dizartriya bolalarda ta'limga bo'lgan qiziqishni oshirish ularning umumiy rivojlanishi va ta'lim hamda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Motivatsiya bolalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, muloqot qobiliyatlarini yaxshilaydi va mustaqillikni rag'batlantiradi. Bu esa, o'z navbatida, tuzatish choralarning samaradorligini oshiradi, natijada nutq buzilishlarini bartaraf etishda yanada sezilarli yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. O'qishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni uyg'otadigan sharoitlar yaratish ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa dizartriya bolalarning jamiyat va ta'lim muassasalarida yanada muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Bolalarda bilish sohasini rivojlantirish ishi idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi muhim bilish jarayonlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar muvaffaqiyatli ta'lim va umumiy kognitiv salohiyat uchun asos bo'lib, bolaning mustaqilligi hamda bilishga bo'lgan faolligini oshiradi. Korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayonida dizartriya bolalarda atrof-muhitga qiziqishni uyg'otish, mantiqiy fikrlashni o'stirish va bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Umumiy va mayda motorikaning rivojlanishi bolaning jismoniy va aqliy jihatdan uyg'un o'sishida muhim rol o'ynaydi. Umumiy harakatlar yugurish, sakrash, tirmashib chiqish kabi yirik faoliyatlarni o'z ichiga olib, mushak tizimini mustahkamlaydi, muvofiqlashtirish va muvozanat hissini rivojlantiradi. Mayda motorika barmoqlar, qo'llar va kaftlarning harakati bilan bog'liq bo'lib, yozish, mayda buyumlar bilan ishlash, nutq va artikulyatsiya motorikasini rivojlantirish kabi ko'nikmalar uchun zarurdir. Bilish sohasi va harakatlarni rivojlantirish uyg'unligi bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi, uning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, nutqini yaxshilaydi hamda o'quv faoliyati va atrof-muhitga moslashishiga yordam beradi.

Xulosa

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish murakkab va ko'p bosqichli pedagogik-korreksion jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda didaktik

ta'minot muhim o'rin egallab, u bolaning nutqiy, bilish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi muhit, moslashtirilgan o'quv materiallari, didaktik o'yinlar, interaktiv metodlar va logopedik texnologiyalar dizartriya bolalarning nutqiy imkoniyatlarini faollashtirishga yordam beradi.

Dizartriya bolalarda artikulyatsion motorika, fonematik idrok, lug'at boyligi va bog'lanishli nutqni rivojlantirishda individual hamda tabaqalashtirilgan yondashuvning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Har bir bolaning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan mashg'ulotlar nutq buzilishlarini bartaraf etishda samarali natijalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, logoped, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligi korreksion ishlarning uzviylikini mustahkamlab, bolaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida motivatsion muhit yaratish, bolalarning qiziqish va ehtiyojlariga mos topshiriqlardan foydalanish, rag'batlantirish usullarini qo'llash ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda nutqiy faolligini kuchaytiradi. Bilish jarayonlari va mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar esa nafaqat nutq rivojiga, balki bolaning umumiy intellektual salohiyati va mustaqilligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, dizartriya bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion didaktik vositalardan foydalanish korreksion-rivojlantiruvchi ishlar samaradorligini oshiradi. Bu esa bolalarning ta'lim muassasasiga, tengdoshlari jamoasiga va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuviga zamin yaratadi. Natijada ularning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi, muloqotga kirishish imkoniyatlari kengayadi va shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M.Y. Logopediya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. — 143 b.
2. Mo'minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Yakubjanova D.B. va boshq. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2013. — 182 b.
3. Toxtiyarova Sh.E., Shakirova Sh.D., Abidova N.Z. Nutqning ontogenezdagi rivojlanishi: o'quv qo'llanmasi. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. — B. 42–52.
4. Бадалян Л.О. Невропатология: учебник. — М.: Издательский центр «Академия», 2012. — 187 с.
5. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В., Зорина С.В. Нарушения речи и их коррекция у детей с задержкой психического развития: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. — Москва: Владос, 2003. — 304 с.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. — М.: Просвещение, 2023. — С. 32–35.
7. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека: введение в психологию субъективности: учеб. пособие для вузов. — М.: Школа-Пресс, 2013. — 384 с.
8. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. — М.: Айрис-пресс, 2008. — 224 с.